

MAHALLIY ECHKILARNING SUT MAHSULDORLIGI

Toreshova A.U

Xo'jamberganova N

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Аннотация:- В статье приводятся результаты изучения молочной продуктивности при разных сроках козления.

- Определена химического состава молока местных коз Каракалпакии.
- Изучена молокоотдача в разных возрастах козы.
- Изучена молочной продуктивность в зависимости от лактаций.
- Также определена количества молока в зависимости от сезона года и технология доение.

Ключевые слова: козоматка, козление, молокоотдача, химический состав молока, доение, сезона года, возраст.

Аннотация: - Maqolada echkilarning turli davrlarda sut mahsuldorligini o'rganish natijalari keltirilgan.

- Qoraqalpog'iston mahalliy echkilari sutining kimyoviy tarkibi aniqlangan.
- Echkilarning turli yoshlarida sut sog'ib olinishi o'rganilgan.
- Laktatsiyaga bog'liq sut mahsuldorligi o'rganildi.
- Yil mavsumiga va sog'ish texnologiyasiga bog'liq sut miqdori aniqlandi.

Tayanch so'zlar: Urg'ochi echkilar, uloqlash davri, sut berish davri, sutning kimyoviy tarkibi, sut sog'ish, yil fasllari, yoshi.

Abstract: - The article presents the results of a study of milk productivity at different periods of a goat

- The chemical composition of milk of local goats of Karakalpakstan was determined.
- Studied milk yield at different ages of the goat.
- Studied milk productivity depending on lactation.
- Also determined the amount of milk depending on the season of the year and milking technology.

Key words: goat male, lambing, milk flow, chemical composition of milk, milking.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda aholi va fermer xo'jaliklari tomonidan chorvachilikning echkichilik sohasiga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-sonli «O'zbekiston

Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida» gi Qarori qabul qilingan.

Respublikada, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasining turli toifadagi xo'jaliklarida asosan mahalliy dag'al junli echkilar ko'paytirilib, ularning biologik va mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha bir qator ish - tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizning cho'l hududlari sharoitiga yaxshi moslashgan qishloq xo'jalik hayvonlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ega bo'lishini ta'minlash, ishlab chiqarishga tavsiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda keyingi yillarda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish, turli assortimentdagi ekologik toza go'sht, sut va pishloq mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilgan keng miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan xorijdan sut va go'sht mahsuldorligi yuqori echki zotlarini olib kelinib ularni turli xududlarga moslashtirish bilan bir qatorda, mahalliy echki zotlari bilan chatishtirish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. «...chorvachilik sohasida zamonaviy innovatsion ishlanmalarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish» borasida topshiriqlar berilgan. qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, chorvachilikni jadal sur'atlarda rivojlantirish, chorvachilik mahsulotlariga aholining o'sib borayotgan talabini qondirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Chorvachilik sohasida echkichilik turli xomashyo mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari olishda muhim ahamiyatga ega. So'nggi paytlarda echki suti va go'shtining parhez va shifobaxsh xususiyatlari tufayli echkichilik dunyoning aksariyat mamlakatlarida serdaromad faollashgan soha bo'lib, alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday qilib, echkichilikning rivojlanishi va takomillashuvi oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va xomashyo bilan ta'minlashda Qoraqalpog'istonning qishloq joylarida aholining bandligini ta'minlashda iqtisodiyotning rivojlanishida asosiy yechim hisoblanadi.

Metodikasi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha oldimizga mahalliy echkilarning turli muddatlarda sut mahsuldorligini o'rganishni maqsad qilib oldik.

Echkilarning sut berishi kuzatish usuli bo'yicha aniqlandi, kuzatish har oyda o'tkazildi. Bu yerda har bir echkidan olingan kunlik sutning ham bir oy davomidagi narxi aniqlab borildi. Bu vaqtda sutning kimyoviy tarkibini aniqlash uchun sutdan tekshirish uchun namuna olindi. (Sutning kimyoviy tarkibi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali laboratoriyasida aniqlandi).

Asosiy qism. Hozirgi zamon ilmiy-tadqiqot tajribalari [1,3,5] shuni isbotlaydiki, echki suti yuqori biologik ahamiyati bo'yicha sigir sutiga nisbatan bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha ona

sutiga yaqin bo'ladi. Shunday ekan, echki sutini odam organizmi yaxshi qabul qiladi, shu jumladan yosh bolalarga, keksa odamlarga foydasi yuqori.

Aniqlashlar natijasiga ko'ra [2,5], sigir sutiga qaraganda echki suti tez hazm bo'lishi, kaloriyaliligi, tarkibida ko'p miqdordagi mineral va quruq moddalarning, almashinmaydigan aminokislotalarga juda boyligi, A, B, C, D guruhidagi vitaminlarning mavjudligi bilan farqlanadi.

Sigir sutiga qaraganda echki sutida yog' sharchalari mayda bo'lib, bu esa yog'ning osonroq so'rilishiga yordam beradi, chunki echki sutidagi yog'lar asta-sekinlik bilan so'riladi. Separatordan o'tkazilganda echki sutida ko'p miqdorda yog' qoladi. Bu qayta ishlashda gomogenizatsiya operatsiyasining muhim emasligidan dalolat beradi. Echki suti raxit kasalligining oldini olish xususiyatiga ega bo'lib, chunki sutda ko'p miqdorda kalsiy, kobalt, selen, magniy, mis, temir, marganes va sial kislotasi bo'lib, u organizmning immunologik barer strukturalari tarkibiga kiradi [3,4].

1-jadval

Urg'ochi echkilarning sut mahsuldorligi, kg

Laktatsiya davrlari	Uloqlash muddatlari					
	fevral		mart		aprel	
	X±Sx	Cv	X±Sx	Cv	X±Sx	Cv
1 oylik	32,2±0,27	7,1	35,4±0,26	7,6	36,1±2,7	8,1
2 oylik	43,1±0,31	9,1	45,3±0,31	8,7	42,1±0,35	8,6
3 oylik	36,1±0,19	7,1	36,8±0,19	7,0	28,1±0,21	7,4
4,5 oylik	28,2±0,17	8,1	28,1±0,16	9,2	23,0±0,15	9,0
Jami:	139,6		145,6		129,3	

Qoraqalpog'istonda odatda mahalliy echkilar sog'ilmaydi, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mahalliy urg'ochi echkilarni sog'ish va ulardan qo'shimcha mahsulot, daromad olish, aholi bandligini ta'minlash ustuvor masala hisoblanadi. Qoraqalpog'iston sharoiti da mahalliy echkilarni sog'ish tajribalaridan olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, turli muddatlarda uloqlagan echkilarning sut berishi bir xil bo'lmagan. Echkilarning yuqori miqdorda sut berishi aprel va mart oylarida uloqlagan echkilarga to'g'ri keladi. Bunga asosiy sabab yaylovning holatiga, yaylovdagi ozuqa o'tlarining to'yimlilikiga va ulardan ozuqa sifatida foydalanish mumkinligiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, laktatsiya davrining birinchi oyida aprel oyida uloqlagan urg'ochi echkilarda sut berishning yuqori ekanligi aniqlangan. Bu vaqtda echkilar uloqlashdan oldin yaylovdagi yangi o'sib chiqqan ozuqa o'tlar bilan oziqlanadi, shuning uchun ham ularda yuqori miqdorda sut berish bo'ladi, laktatsiya davrining 3 va 4 oylarida esa kunning isishi boshlanib, natijada

yaylovdagi ozuqalar qurib, qotib qoladi, natijada qiyinchilik bilan hazm bo'ladi, shunga bog'liq holda sut berish pasayadi. May oyida uloqlangan echkilarning sut mahsuldorligi mart va aprel oyidagi uloqlangan echkilarga nisbatan past bo'ladi.

Tojikistonning mahalliy echkilarini o'rganib, mahalliy echkilarning sut berishi ularning ko'paytirish mintaqasiga bog'liqligini isbotlagan. Ularning ma'lumotiga ko'ra Janubiy mintaqalarda yetishtirilgan echkilar yuqori sut mahsuldorligi bilan xarakterlanadi, chunki u yerlarda yaylov o'simliklarining vegetatsiya davri erta boshlanadi. Shunday bo'lsa-da, barcha mintaqalarda yuqori sut mahsuldorligiga o'rta yoshli echkilar ega bo'lgan. Eng yuqori sut mahsuldorligi laktatsiyaning ikkinchi oyiga to'g'ri keladi, keyin sut miqdorining pasayishi aniqlangan. [6,7].

Sog'ib olingan sutning miqdori bilan birga uning sifatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sutning sifati va ozuqaviy qiymati mahalliy echki sutining kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'ladi. (2-jadval) Sutning kimyoviy tarkibini tekshirish uchun namuna laktatsiya davrining 30-kunida olindi.

2-jadval

Sutning kimyoviy tarkibi, %

Uloqlash muddatlari	Suv	Quruq moddalar					zich issiqligʻi	Kislotaligi	Kaloriyaliligi	
		Jami	Jumladan						Kkal	kJ
			Yogʻ	oqsil	qant	kul				
Fevral	85,8	14,2	4,7	4,2	4,5	0,8	1,03	14,2	777,5	3250,0
Mart	83,9	16,1	5,6	4,69	5,0	0,9	1,03	13,4	900,4	3780,4
Aprel	85,2	14,8	5,0	4,5	4,45	0,85	1,02	15,0	815,1	3420,1

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turli muddatlarda uloqlangan echkilar sutining kimyoviy tarkibi bir xil bo'lsa-da, o'sha vaqtlarda ayrim o'zgarishlar aniqlandi. Mart, aprel oylarida uloqlangan echkilarning sutida ko'p miqdorda suv (1,9 - 1,3%), kam miqdorda yog' (0,9-0,6%) bo'lgan. Sutdagi qand va kulning miqdori bir xil bo'lgan.

Qoraqalpog'istonning mahalliy echkilari sutining kimyoviy tarkibi sut yo'nalishidagi echki zotining suti bilan solishtirganda, mahalliy echkilar oz miqdorda sut bersa ham ularning suti quyuqroq bo'lib, yog', oqsil va qand miqdori yuqori bo'ladi.

Xulosa. Agar urg'ochi echkilarni alohida sog'ib olishni tashkil etishda onasidan ayirish va birga boqish usulini qo'llaganda, masalan, 10 kunligidan boshlab 60 kunligi oralig'i da (alohida boqib) uloqlarni kechki vaqtlarda onasining bir yelinini emizish, ikkinchi yelinini sog'ib olish usulini tashkil etganda har bir ona echkidan o'rtacha 2,0-2,5 litr sut sog'ib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Торешова, А. У., & Хусеинова, М. Орол бўйи маҳаллий эчкиларининг айрим биологик хусусиятлари. Агро Процессинг журналі № 5 сон 2 жилд. Тошкент-2020. *АГРО ПРОЦЕССИНГ ЖУРНАЛИ*, 50.
2. Toreshova, A. U. (2020). Living mass and exterior peculiarities of local goats of Karakalpakstan. *Экологический вестник Северного Кавказа*, 16(2), 80-81.
3. Торешова, А. У., Ажимуратов, А. П., & Шерипбаев, А. А. (2024, November). ЗААНЕН ВА МУРСИА-ГРАНАДА ЭЧКИ ЗОТЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14228991>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 244-248).
4. Ubbiniyazovna, T. A. (2022). Development of Livestock Networks in the Republic of Karakalpakstan. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3 (5), 242-244.
5. Toreshova, A. U. Молочные особенности местных коз в северных регионах Республики Каракалпакстан. Международный электронный научный журнал "Journal of technical science and innovation" (Том-1, №3, Март 2020 года) 75-78 б.
6. Toreshova, A. U., Sarsenbayeva, D. Characteristics of goats productivity in the conditions of Karakalpakstan. *International Journal for Innovative Engineering and Management Research* Vol. 11, Issue 04, 2022, Pages 526-531.
7. Торешова, А. У., Базаров С.Р Турли зот эчкиларнинг сут маҳсулдорлиги. SCIENCE AND EDUCATION IN AGRICULTURE. January 2025. Volume 01, Issue 01. <https://orcid.org/0009-0009-4044-5534>. Б-258-265.